

BUGUNGI KUN ILMIY TADQIQOTCHILIGINING O'ZIGA XOSLIGI VA KAMCHILIKLARI

Ahtamova Farzona Farxod qizi

Samarqand davlat chet tillari instituti

Xorijiy til va adabiyot yo'nalishi II kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada, ilmiy tadqiqotchilikdagi yutuq va kamchiliklar, ularni bartaraf etish uchun olib borilgan izlanishlar haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Empirik tadqiqot, gipoteza, fundamental, maqola, tezis, dissertatsiya, ilmiy yangilik, tajriba

Abstract: This article talks about the achievements and shortcomings of scientific research, and the research conducted to eliminate them.

Keywords: Empirical research, hypothesis, fundamental, article, thesis, dissertation, scientific innovation, experiment

Bugungi kunda yoshlarga berilayotgan imkoniyatlar nafaqat kengligi bilan, balki barcha sharoitlarning mavjudligi bilan ham diqqatga sazovordir. Shu sababdir balki, ilmiy tadqiqotga qiziquvchi yoshlar safi kengayib bormoqda. Biroq ularning oldida ilmiy tadqiqot tushunchasi va uning ma'suliyati ham turganini unutmaslik lozim. Bugungi kunda tadqiqotchilar oldida qanday vazifalar turibdi? Ulardan qanday tadqiqot ishlari kutilmoqda? Ushbu dolzarb bo'lgan masalani yanada yorqinoq yoritish, muamolar va vazifalar haqida fikr yuritish muhim omil hisoblanadi.

Ilmiy tadqiqot— yangi bilimlarni ishlab chiqish jarayoni, bilish faoliyati turlaridan biri. Unga ob'yektivlik, ishonchlilik, aniqlik xos. Ilmiy tadqiqot hamma shartlarga amal qilib takrorlanganda hamisha birdek natija berishi, bahs etilayotgan masalani isbotlashi lozim. Ilmiy tadqiqot bir-biri bilan bog'langan ikki kiyim — tajriba va nazariyadan iborat. Ilmiy tadqiqotlarni fundamental va amaliy, miqdoriy va sifatiy, noyob va kompleks tadqiqotlarga ajratish keng tarqalgan. Ilmiy tadqiqotlarning metod va tajribalari fanning o'zidagina emas, balki ko'pgina iqtisodiy va ijtimoiy masalalarni hal qilishda ham keng qo'llanadi.¹

Bugungi kun tadqiqotchisidan kuzatuv, xulosa va ilmda topgan yangiligini yozayotgan ishida ifodalashi va o'z xulosalarini berishi talab qilinmoqda.. Bu dissertatsiya shaklida taqdim etiladi ko'pincha. Har bir davlat, universitet, ilmiy doira yoki tadqiqot markazining o'z talabi, qonun-qoidasi bor. Masalan, O'zbekistonda «Ilmiy darajalar berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi qarorda falsafa doktori, fan doktori ilmiy darajasini olish uchun yoziladigan dissertatsiyaga o'ndan ortiq talab qo'yilgan. Sinchiklab o'qilsa, hammasi ayni muddao — puxta o'ylangan, bari risoladagidek. Bu qonun-qoidalarni sinchiklab o'rganish va unumli foydalanish har bir tadqiqotchining ilk vazifalaridan biridir.

Lekin amalda-chi? Hamma ham talab-qoidaga rioya qilyaptimi? Yozilayotgan ilmiy ishlar qanchalik sifatli? O'zbek ilm-fani uchun nechog'lik yangilik bo'lmoqda? Yildan yilga tadqiqotchi, izlanuvchilar soni oshyaptiyu, nega natijasi bilinmayapti? Nima uchun ayrim ishlar arxivlardagina turishga yarayapti? Arxivda turish uchun yoziladimi ilmiy-tadqiqot ishlari?

¹ uz.wikipedia.org

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-AVGUST

ANDIJON, 2024

Qilinayotgan har qanday ilmiy ish keljak avlod uchun foydali va qiziqarli bo'lishi kerak emasmi? Muammo nimadiligini mutaxassislardan so'rash va tahlil qilish, shuningdek ilmiy ish aslida qanday yozilishi (yoki bo'lishi) haqidagi bir necha fikrlarni jamladim.

Ilmiy ish qilishning natijasi nima bo'lishi kerak? Bu ilmiy daraja haqidagi diplommi? 120 betli yozma matnmi? Jurnallarda chop qilingan maqolalarmi? Garchi bular ilmiy ishni HIMOYA qilishdagi shartlar va tasdiq bo'lsa ham, ular ilmiy ish qilishning natijasi emas.

Psixolingvist olimi Iroda Azimovaning "Gazeta.uz" saytidagi bir maqolasida ko'plab savollar javobini topa olish mumkin. "Men nomzodlik dissertatsiyam ustida jami 6 yil ishlaganman. Qaysidir o'tkazgan tajribam, qaysidir chiqargan maqolam, bir necha o'nlab o'qigan kitoblarim dissertatsiyamdan o'rin olmagan. Dissertatsiyamni yozish va tahrir jarayonida uning reja-mundariyasi bir necha marta o'zgartargan."²-deydi olimi. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, ilmiy ish uchun yozilgan maqolalar, tesizlarni shunchaki kiritib ketish emas, yanada sayqallash, yakuniy xulosalar qilib, o'zgartirishlar kiritishdan keyin tadqiqotga aylantirish kerak degan xulosa olish mumkin.

Ilmiy ish qilish jarayoni bu bir hodisani ilmiy jihatdan tushuntirish uchun u xususida uzoq muddat o'ylanish degani. «Ilm – igna bilan quduq qazishdir» degan o'xshatish jarayonning mohiyatini juda yaxshi ochadi, chunki ilmiy ish qilish jarayonida izlanuvchi hamma ko'rib turgan hodisaning hech kim ko'rmagan, ko'rolmaydigan tafsilotlarini aniqlaydi.

Xo'sh, tafsilotlarni aniqlashning qanday foydasi bor? Biz shundagina hodisaga yaxlit holda to'g'ri baho bera olamiz, unga nisbatan to'g'ri yondasha olamiz. Olima deydiki, "Masalan, o'zimning dissertatsiyam menga darsda o'qigan matnimning mazmunini gapirib yo yozib bergan bola tushunishning qaysi darajasida turganini aniqlash va bu aslida natija emas, jarayon ekanini, bola matnini tushunishning yuqori darajasiga chiqishi, buning uchun unga men o'qituvchi sifatida yordam bera olishim mumkinligini o'rgatgan." Demakki, Ilmiy ishdan maqsad ILM bo'lishi kerak. Ilmiy tadqiqot boshlagan har bir tadqiqotchi eng avvalo ikki ishni bajarib olishi shart.

Birinchisi – o'zi tanlagan mavzu yoki soha bo'yicha undan avval ayni shu yo'nalishda qilingan barcha ishlar bilan tanishib chiqish; ikkinchisi – ishning asosiy o'q skeleti bo'lgan tadqiqot gipotezalarini shakllantirib olish.

Ko'p tadqiqotchilarni ko'raman, o'zidan avvalgi qilingan ishlar bilan to'liq tanishmasdan «men falon-falon qildim» deydi, vaholanki, u aytayotgan narsani undan ancha avval qilib bo'lishgan yoki yana bir toifa tadqiqotchilar bor, «ishingizning asosiy gipotezalari nimadan iborat?» deb so'rasangiz undan nima so'ralayotganini hatto tushunmaydi. Empirik tadqiqotga asoslangan har qanday ilmiy maqola yoki dissertatsiyaning boshlanish qismida mavzuning o'rganilish tarixi tizimli ravishda, shu bilan birga, tanqidiy yondashuv asosida ochib beriladi. Ishni o'qigan odam ishning mana shu qismi asosida tadqiqotning ahamiyati va dolzarbligini tushunadi. Agar siz maqolaning kirish yoki dissertatsiyaning adabiyotlar tahlili qismini o'qisangizu, bu maqola/dissertatsiya o'zi nega yozilmoqda degan savolga javob topmagan bo'lsangiz, demak tadqiqotchi avval boshdan to'g'ri yo'lda emas, deb xulosa qilishingiz mumkin.

Ilmiy tadqiqot qilayotgan har bir tolib-toliba quyidagi uch savolga javob izlashi o'rinli:

1. Ushbu maqola yoki tadqiqot ishi fandagi kichik bo'lsa-da biror bo'shliqni to'ldira oladimi?

² www.gazeta.uz.2022.12/13

2. Yozayotgab ilmiy ishida undan avvalgi tadqiqotchilar yozmagan biror ilmiy yangilik mavjudmi?

3. Ushbu ilmiy ishni ertaga kimdir o'qiydimi? Kimgadir foydasi bormi?

Ilmiy ish yozishdagi yana bir muhim jihat haqida to'xtalmasam bo'lmaydi. Bu ilmdagi soxtakorlik va ko'chirmakashlikdir. Ilmiy faktlarni o'z manfaati yo'lida soxtalashtirish yoki manipulyatsiya qilish, ko'chirmakashlikka yo'l qo'yish ilmiy tadqiqotchi qilishi mumkin bo'lgan eng jirkanch ishdir va buning badalini hech narsa bilan to'lab, o'nlab bo'lmaydi. Ming afsuski, bugungi juda ko'plab «ilmiy ish»larda yuzsizlarcha falsifikatsiyaga, plagiatga yo'l qo'yilmoqda. Bundan na dissertantlar va na ularning rahbarlari tashvishlanmoqda.³

Ilmiy ishlarga talab har joyda turlicha. Kirish qismi ko'pincha muhim sanaladi va asosiy qism – ish nima uchun qilinayotgani e'tibordan chetda qolaveradi. Xitoyda magistraturaning 2 xili bor: amaliyotchi va ilmni davom ettiruvchi. Birinchisi ko'proq amaliyot bilan band bo'lsa, keyingisi doktoranturaga bosqichma bosqich tayyorlanib boriladi. Ilmiy ish o'z yangiligi bilan avvalgi olimlarnikidan farqlanishi va muhokama, xulosa qismida qilingan yangi metodning ijtimoiy soha (masalan, qishloq xo'jaligi, energetika va boshqalar)ga ahamiyati qandayligi yozilishi kerak. Yaponiyada talab shu. Yana qo'shimchasiga Xalqaro jurnallarda (Q2 yoki Q1) maqola chiqsa, keyin ilmiy ish himoyasiga ruxsat beriladi.⁴

Ilmiy ish shunday bo'lishi kerakki, unda aniq bir muammoga yoki muammoning bir qismiga yechim topilishi lozim. Muammo deganda odam matnni o'qiyotganda uning miyasida qanday jarayonlar kechadi, miya qanday “yumushlar”ni bajargach odam o'qigan, eshitgan narsasini tushunadi kabi holatlarni aniqlashni ham nazarda tutmoqdaman. Demak har bir ilmiy ish oxirida insoniyat uchun qandaydir foyda bo'lishi lozim.

Xulosa sifatida aytish o'rinliki, ilmiy ish – mas'uliyat. Unda aytilgan har bir hukmning qandaydir asosi bo'lishi lozim. Hattoki Alisher Navoiy buyuk ijodkor desangiz ham buni asoslab berishingiz kerak. Ilmiy ish aynan shu jihati bilan boshqa ishlardan, matnlardan ajralib turadi.

Bundan tashqari ilm shunday narsaki, u sendan juda ham ko'p e'tibor va diqqatni talab qiladi. Agar unga keraklicha e'tibor qarata olmasang, boshlagan ishing yo chala tug'iladi, yo o'lik. Buni ham unutmash kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M.R.Qodirova. Tillarga ixtisoslashmagan oliy ta'lim muassasalari talabalariga chet tilini o'rgatishda ijodiy faollikni modernizatsiyalash: p.f.b.f.d. (PhD) diss. avtoref. ... - Toshkent, 2018.
2. B.X.Rahimov. Talaba-yoshlarni ilmiy-tadqiqot ishlariga yo'naltirishning ijtimoiy pedagogik asoslari: p.f.d. diss. avtoref. ... - Toshkent, 2009.
3. G.N.Ibragimova. Interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish: p.f.b.f.d. (PhD) diss. avtoref. ... Toshkent, 2017.
4. uz.wikipedia.org
5. www.gazeta.uz.2022.12/13
6. www.standart.uz
7. www.ziyo.uz

³ www.gazeta.uz.2022.12/13

⁴ www.gazeta.uz.2022.12/13